



GENDER TENGLIK MASALASINING YANGI O'ZBEKISTONDA HUQUQIY JIHA TLARI

Uraimjonova Malika Qahramon qizi

O'zbekiston Milliy Universiteti Tarix fakulteti

@malikaurimjonova0109@gmail.com

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7874481>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2023

Accepted: 27th April 2023

Online: 28th April 2023

KEY WORDS

Ayollar huquqlari, zamonaviy o'zbeklar, gender tengligi, YUNESKO, ijtimoiy jins, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi, gender statistikasi, ayollarning huquq va imkoniyatlari, barqaror taraqqiyot dasuri, BMT konvensiyasi, ijtimoiy tenglik.

ABSTRACT

Bugungi kunda inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida ayollar huquqlari, erkak va ayol o'rtasidagi ijtimoiy va huquqiy tenglik masalasi o'zining dolzarbligini ko'rsatmoqda. Chunki hozirgi kunda dunyoning ko'plab mintaqalari ayollarning jamiyatdagi mavqei, ular huquqlarining poymol etilayotganligi bilan bog'liq jiddiy muammolar yuzaga kelmoqda. Mazkur maqolada gender tenglik masalasining yangi O'zbekistonda huquqiy jihatlari ko'rib chiqilgan.

KIRISH

Ta'rixda turli tuzum va jamiyat strukturasi vujudga keldi. Ba'zilar tez orada inqirozga yuz tutgan bo'lsa, boshqalari usha xalq va fuqarolarning talabiga moslashtirildi. Patriarxat tuzimlar chuqur ildiz otgan jamiyatlarda ayollar huquqi haqidagi gaplarning har bir kishiga etib borishi uchun, bu haqda ko'pincha erkaklar gapirishi kerak bo'ladi. Bunga tarixdan aniq misollar bor. Edvart Ollvort Zamonaviy o'zbeklar kitobida yozganidek, XX asrning 50-60 yillarida O'zbekistonning asosiy adabiy jurnali bo'lgan «Sharq yulduzi» sahifalarida jamoatchilikka yangi yozuvchilar tanishtirilar edi. Ayollarning ham sahnaga chiqishini rag'batlantirish maqsadida jurnallar Qizlar ovozi yoki Qizlar guldastasi degan ruknlar tashkil etgan edi. Bu ishni, deb yozadi Ollvort, Asqad Muxtor va boshqa taniqli shoirlar, ayrim muharrirlar va o'qituvchilar birga bajarishdi.

Gender tengligi YUNESKOning 2008-2013-yillarga mo'ljallangan O'rta muddat Strategiyasida ikki global ustuvor maqsaddan biri sifatida belgilangach, mazkur dolzarb masala tashkilot strategik faoliyatining eng qizg'in jabhasiga aylandi. Mazkur ustuvor maqsadga erishish uchun ikki jihatga: gender bo'yicha dasturlar va YUNESKO vakolatiga kiruvchi ta'lim, fan, madaniyat, kommunikatsiya va axborot kabi barcha sohalarga strategik taraqqiyot, xabardorlikni oshirish, himoya va tadqiqotlardan tortib, ilmiy salohiyatni o'stirish va ta'lim jabhalariga qadar gender tengligi strategiyasini tatbiq etishga e'tibor qaratiladi.



YUNESKO ushbu dolzarb maqsadga sodiq qolib, O'rta muddat Strategiyasiga ilova sifatida o'zining Gender tengligi bo'yicha 2008-2013-yillarga mo'ljallangan ustuvor Harakatlar Rejasini ishlab chiqdi. Mazkur reja O'rta muddat Strategiyasida ko'zda tutilgan olti yil davomida YUNESKOning gender tengligi bo'yicha ezgu g'oyalarni ro'yobga chiqarishda amaliy va samarali faoliyatda yo'l xaritasi vazifasini o'taydi. YUNESKO odamlarni jinsiy mansubligiga ko'ra kamsitishning har qanday shakllarini inson huquqlari buzilishi hamda tinchlik, barqaror taraqqiyot va xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan rivojlanish marralariga etish yo'lida ulkan g'ov deb biladi. BMTning Ayollar ahvoli bo'yicha IV umumjahon anjumanida (1995-yil 4-15-sentabr) bir ovozdan ma'qullangan Pekin Deklaratsiyasi hamda Harakat Platformasi hamisha e'tiborimizda. Deklaratsiyada muammoli boshqa jabhalar qatori ommaviy axborot vositalari (OAV) ham xotin-qizlarning qadr-qimmatini oshirishga munosib hissa qo'shishi mumkinligi ochiq e'tirof etilgan. Ushbu hujjatda hukumatlar hamda xalqaro taraqqiyot tashkilotlari xotin-qizlarga nisbatan nopisand va noteng munosabatga barham berish, ularning kommunikatsiya tizimlari, xususan, OAVdagi ishtirokini kuchaytirish bo'yicha amaliy choralarga da'vat etilgan¹

Gender, yoki ijtimoiy jins-ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'zgaruvchan ijtimoiy-madaniy farqlarni, rollarni, axloq andozalarini, tabiiy (tug'ma) bo'lmagan, ya'ni jamoat tasavvuridagi me'yorlar va an'analar asnosida ular tomonidan o'zlashtirilgan sifat va boshqa ta'riflarni ifodalovchi tushunchadir. Ayollar va erkaklarga xos bo'lgan tushunchalar to'g'risidagi ayol va erkaklarning tasavvuri, turli sohalarda vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin (o'zgarmoqda ham).

Gender tenglik-erkaklar va ayollar ijtimoiy sohada teng tarzda ahamiyatga, teng huquq va mas'uliyatga, xamda teng sharoitlarga (manba va imkoniyatlarga teng tarzda erishish) ega bo'lishlaridir va ulardan qonunda belgilangan tarzda rasmiy tenglik (hujjat asosidagi tenglik) asosida foydalana olsalargina, tenglik o'z aksini topadi. Shu o'rinda bu so'zning lug'aviy mazmuniga ham to'xtalib o'sak: Jins-ayollar va erkaklarning o'zgartirib bo'lmaydigan nisbiy biologik farqlarini ifodalovchi termindir. Jins oldindan to'la belgilangan, universal va vaqt o'tishi bilan o'zgarmaydi. Gender esa bu [jins] ijtimoiy jinsiy tenglikning hayot tarzi va barcha sohalardagi aksi.

Yuqorida BMT tomonidan bu atama kirib kelgan deb aytgan edik. Joriy yilning 23-sentabrida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi bo'lib o'tdi va unda mamlakatimiz rahbari tarixiy nutq so'zladilar. Tarixiylikning o'ziga xos jihati uning o'zbek tilida gapirilgani bo'ldi. Bildirilgan qat'iy fikrlar orasida ushbu muammoga taaluqli alohida yondashuv barchaning etiborini tortdi: Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi.

Xotin-qizlarning erkaklar bilan tengligi ko'pgina demokratik davlatlarning asosiy qonunlarida, shu jumladan, O'zbekistonning Konstitutsiyasi bilan ham, ayni vaqtda inson huquqlariga dahldor bo'lgan bir qator xalqaro hujjatlar, bitimlar, konvensiyalar, deklaratsiyalar bilan ham kafolatlanadi. Bularga BMT Ustavi(1945- yil 26- iyun), Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi (1948- yil 10-dekabr), Fuqarolik va siyosiy huquqlar

¹ Abdul Vohid Xon, YUNESKO Bosh direktorining kommunikatsiya va axborot masalalari bo'yicha o'rinbosari Y.A.Mamatova, Ommaviy axborot vositalarida gender munosabatlari O'quv qo'llanma toshkent 2015 3b.



to'g'risidagi paktlar, BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlar, inson huquqlarini himoya qilish xalqaro tizimini tashkil etuvchi ko'pdan-ko'p xalqaro bitimlarni kiritish mumkin. Ularda erkak va ayollar uchun yagona bo'lgan inson huquqlari umumiy konsepsiyasini tashkil etuvchi salkam 70 ta xalqaro standartlar qayd etilgan.

Ushbu konvensiyaga binoan, ishtirokchi - davlatlar bunday kamsitishlarni qoralaydilar va unga barham berish siyosatini yuritishni o'z zimmlariga oladilar. Konvensiyaning 1 moddasiga binoan, ayollar nisbatan kamsitish tushunchasi ayollarni ular aynan ayol bo'lganligi uchun har qanday farqlash, ro'yxatlardan o'chirish yoki huquqlarini cheklab qo'yishni anglatadi. Bu esa ayollarni, ularning oilaviy ahvolidan qat'iy nazar, erkaklar va ayollarning teng huquqliligi asosida turmushning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqaroviy va boshqa jabhalarida, ularga tegishli bo'lgan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini e'tirof etmaslikni, ayollarning bunday huquq va erkinliklardan foydalanishlari yoki ularni amalga oshirishlariga to'sqinlik qilishni bildiradi. "Ming yillik rivojlanish maqsadlari kabi, milliy va xalqaro darajada tasdiqlangan rivojlanish maqsadlari, gender statistikasiga bo'lgan talabning oshishiga turtki bo'ldi. Bir qator sohalardagi tengsizlikni, shuningdek ta'lim, ish haqi, xamda me'yoriy hujjat qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish kabi sohalardagi tengsizlikka barham berish maqsadida, jami 189 ta davlat hamkorlikda ish olib borish majburiyatini olishdi.

BMTning Mingyillik deklaratsiyasida, sakkizta mingyillik rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi rivojlanishni baholashda foydalanish lozim bo'lgan miqdoriy ko'rsatkichlar ko'rsatib o'tilgan. Dunyoda, gender statistikasi xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, hamda gender tenglikka erishish uchun zarur bo'lgan talab ekanligi to'g'risida yaxshi natijalarga erishildi, bu esa o'z navbatida ikkala holda ham qashshoqlikka barham berish, keng qamrovli iqtisodiy o'sishda va barqaror rivojlanishda muhim ahamiyatga egadir, gender tenglikning qashshoqlikka nima ta'siri bor degan tabiiy savol tug'iladi. Jamiyat hayotida ayol va erkakning roli qanchalik teng bo'lsa va ayollar noqonuniy ta'xirlardan xalos etilsa, ishlab chiqarish, ta'lim, ijtimoiy sohalarning tenglikda barqaror rivojlanishiga zamin yaratiladi. Shu tariqa, hozirgi davrda gender statistikasi sohasi faqatgina gender tenglikka erishishga yo'naltirilgan faoliyatda muhim ahamiyatga ega bo'libgina qolmay, balki yaqin davrgacha ko'p jihatdan bog'liqligi yo'q deb hisoblangan sohalarning, ya'ni qashshoqlikka qarshi kurashish, atrof muhitni muhofaza qilish, budjetni shakllantirish va moliyalashtirish kabi sohalarning rivojlanishi yo'lida olib boriladigan faoliyatda xam muhim ahamiyatga egadir. Davlatning budjet ajratmalaridagi rejalar ham shunga qarab tartibga solina boshlanadi.

Ushbu maqsadlar aslida asosiy muammolarimiz ekanligi ayon haqiqat. Savol: Gender tenglikni bu qadar hisob-kitob qilish va nazoratga olish nimaga kerak? Bularning statistikasi nima uchun kerak va shu kabi savollar juda ko'p.

Gender tengligini ta'minlash Barqaror taraqqiyot 2030 dasturining 17-maqsadidan biridir. Belgilab olingan vazifalarni yechish uchun keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirishni ko'zda tutuvchi majmuaviy yondashuv"ni qo'llash talab qilinadi.

Mamlakatda gender tenglikni ta'minlashga oid strategik rejalar qabul qilish, ayollar va erkaklarga davlat sektoridagi lavozimlarda ishlashga, siyosiy hayotda ishtirok etishga bo'lgan



huquqini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati amalga oshiriladi. Shuningdek, qonun hujjatlarining gender tenglikka taʼsiri huquqiy ekspertizadan o'tkazilib baholanadi. Avstriya Mamlakatda 2013-yilda o'tkazilgan federal budget islohotidan so'ng, parlament tomonidan normativ hujjatlarning erkaklar va ayollar o'rtasidagi haqiqiy tenglik nuqtayi nazaridan tahlilini, shuningdek barcha yangi qonunlar, qonunosti hujjatlar va boshqa yirik davlat loyihalarining gender guruhlariga ta'sirini baholash joriy etadi²

O'zbekistonda mustaqillik yillarida gender tenglikka erishish choralari ro'yobga chiqarish yo'lida juda katta ishlar amalga oshirildi. Oilaning ijtimoiy muhofazasi, onalik va bolalik masalalariga masul bo'lgan Bosh vazir o'rinbosari rahbarligida 1991 yilda Xotin-qizlar qo'mitasiga asos solinganligi bilan institutsional rivojlanishda sezilarli o'sishga erishildi. Xotin-qizlar qo'mitasi barcha hududlarda va jabhalarda vakolatli bo'lgan takomillashgan tizimga ega. Qo'mita raislari orasida viloyat darajasidagi 14 ta xokim o'rinbosarlari, shuningdek munitsipal va tuman darajasidagi ma'muriyat rahbarlarining 219 ta o'rinbosarlari faoliyat ko'rsatishadi. Xotin-qizlar qo'mitasi, hamda Tashqi ishlar vazirligi va Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz Xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya, Pekin harakati dasturining bajarilishi, Mingyillik rivojlanish maqsadlari bilan yuklatilgan xalqaro majburiyatlar bo'yicha hisobotlarda Davlat statistika qo'mitasi bilan uzviy hamkorlikda ish olib boradi. Xotin-qizlarning ahvolini yaxshilash va ularning iqtisodiy huquqlarini mustahkamlash yuzasidan milliy darajada dasturlar va chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat boshqaruvi organlari, respublikaning jamoat va ilmiy tashkilotlarining gender masalalarini hal qilishdagi faoliyatini jonlantirish, gender tengligi masalalarini tavsiflovchi statistik ma'lumotlarga bo'lgan ichki ehtiyojning o'sishiga yordam bermoqda, hamda ushbu ma'lumotlardan foydalanuvchilarning doirasi kengaymoqda. O'zbekistonda 1990-yillarning oxirlaridayoq gender statistikasini ilgari surish bo'yicha birinchi qadamlar qo'yilgan edi. Aynan o'sha davrdan boshlab respublikada gender ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi risolalar muntazam ravishda chop etib kelinmoqda.

XULOSA

Umumiy qilib gapiradigan bo'lsak bugun butun dunyoda jamiyatda tabaqalanish va irqiy ajralishlarga qarshi kurash olib borilmoqda. Pandemiya barchani bir gumbaz ostiga oldi go'yo. Shunday ekan gender tenglikni avvalo qonuniy mustahkamlash va javobgar organlarning alohida nazorati, e'tiborini ushbu jarayonlarga qaratish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Zero ayollarning jamiyatda umuman ijtimoiy hayotdagi o'zni anchagina darajada yuqori bo'lgani ma'qul.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi.
2. E. Ollvort. The Modern Uzbeks. California: Hoover University Press, 1990. 423 b.
3. Azimov. A. Ayol va olam. Huriyat. 2017.8- mart 10-son. B.5;

² Saidova L. UNESCO xalqaro me'yoriy hujjatlari: to'plam. T.: Adolat. 2004. B. 25.



4. Huseynova. A. Fuqarolik jamiyati va ayollar faolligi. Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. 2011.№ 4.-B. 25-30,155.
5. Shamsiyeva. M. X. Xotin-qizlarning gender tengligi-jamiyat taraqqiyotining mezoni. Buxoro Davlat Universiteti ilmiy axborot jurnali. Standart poligraf. 2015. №1.-B.124.162.
6. Karimova. M. Ayol mavqei: kecha va bugun. Tafakkur №-1. "Sharq" 2015.-B.114. B127.
7. Amirova D. Erkaklar va ayollarning teng huquqligi.//Huquq va burch 2008.
8. <http://lex.uz>
9. <http://gov.uz>
10. <http://norma.uz>,
11. <http://uzlidep.uz>
12. <http://uza.uz>
13. <http://president.uz>